IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2, ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/

XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARIDA NUTQ MADANIYATI MASALALARI

Arslanova Nasiba Maksatovna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti turkiy tillar fakulteti,

turkman tili va adabiyoti yo‘nalishining 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodi namunalarining nutq madaniyatiga ta’siri va ular natijasida yuz beradigan ma’lum o‘zgarishlarning nutq masalalari hamda ularning amaliyoti yuzasidan fikr va xulosalar o‘z ifodasini topgan.

KALIT SO‘ZLAR: Hor ijrochiligi, temp, sharq nutq madaniyati, mentalitet, maxsus qoliplar

Kundalik turmush sharoitimizda ishlatadigan so‘z va iboralarimiz va ularning qo‘llanilish darajasi ma’lum tartib va qoidalar asosida amalga oshiriladi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ma’lum lahjalarga asoslangan va so‘zlashuv tili jiharidan tartibga solingan qoliplari kishilik jamiyatimizda atroflicha aks etadi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari faqatgina adabiybtig‘dan kelib chiqish shakli qo‘llanilishi va ularning tasvir mohiyatidan farq qiladi. Xalq olzaki ijodi namunalarida nutq madaniyatiga xos birliklarning turli geografik hududlarga xos tarzda qo‘llanilishi kuzatilishi mumkin. Bunda aholining etnik jihatdan aholining kelib chiqish shakli, joylashiv o‘rni va so‘zlashuv uslubiga xos ifodalar o‘z aksini topadi. Xalq og‘zaki ijodi namunalarida:

- aytishuv,

-laparlar,

-yallalar yoki boshqa bir marosim qo‘shiqlari bo‘lsa yakka yoki boshqa bir kishilarning ijrochiligida amalga oshiriladi. Nutq maaniyatining o‘ziga xos ekabligi shundan iboratki, ma’lum bir hududga cos bo‘lgan ibora, so‘z yoki iboralar, tasvir shakllari xalq og‘zaki ijodi namunalarida yetarlicha bemalol aks etishi mumkin. Xalq olzaki ijodining o‘ziga xos ekanligi ham manashundadir. Nutq madaniyatida sharqona uslublar, xalq olzaki ijodida namoyon bo‘lish bilan birgalikda ma’no nozikliklari ham turli xil vositalar yordamida turli xil o‘rinlarda qo‘llanilishi kuzatiladi. Nutq davomida takallufni ofodalash uchun qo‘llaniladigan so‘z va so‘z birikmalari yoki kinoyaviylikni shakllantirish maqsadida qo‘llaniluvchi so‘z va so‘z birikmalari ifodasi. “Xalq og‘zaki ijodi namunalarining rivojlanishida maqolalr, topishmoq, ertaklar, dostonlar, tez aytish va askiyalar ham keng tarzda ifodalanishi mumkin. Ularning ma’luq tarrib qoidalarga asoslangan bo‘linish, shakllari mavjud”[1]. Misol uchun: Ertaklar tarkibida uchratishimiz mumkin. Xalq og‘zaki ijodida og‘izdan og‘izga, avloddan avlodga, ustozdan shogirdoga o‘tishi orqali namoyon bo‘ladi, yaratiladi. Ahamiyatlisi shundan iboratki, ertaklarning ham ma’lum tartib va turdagilari o‘zining qoliplariga ega. Misol uchun: Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Qadim-qadim zamonda kabi. Manashunday tarzda qonuniyatlarning mavjud ekanligi ularning kompozitsion jihatdan qoliplarga ega ekanligini sezishingiz mumkin.

Alisher Navoiy asarlarida ham xalq og‘zaki ijodi namunalarining yorqin aks etishi ham nutqiy birliklarning ham ma’lum bir o‘rinlarda ifodalanadi. Bu esa ilmiy jamoatchilik, ilmiy faoliyat vakillari kengashlari tomonidan nutq masalalari dolzarb masala ekanligi yuzasidan ham dalolat berib turibdi deyish mumkin.

Maqollarda esa xalq donishmandligi va kishilik jamiyatimizda bo‘lib turgan voqea va hodisalarga nisbatan munosabat yoki donolik natijalarida yuzaga kelgan holatlarni kuzatishimiz mumkin. Maqollarda ham ko‘p holatlarda qofiydorlil, jarangdorlik hamda yodda qolishi uchun turli xil vositalar qo‘llaniladi. Misol uchun: Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo‘lar chiroylik. Bunda boylik va chiroylik so‘zlari kishining e’tiborini tortib elab qolish darajasini, o‘ziga xosligini tashkil etmoqda. Bundan tashqari

[1] Tojiyev Yo., Mallaboyev M. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. Toshkent:. Iqtisodiyot, 2006

maqollarda fonetik jihatdan o‘zgarishlar o‘zaro davr va muhit ta’sirida yuzaga kelishi mumkin. Xalq og‘zaki ijodi namunalarining namoyon bo‘lishida ya’ni ifodalanishida nutq madaniyati va tempiramentlarga ham asos sifatida e’tibor qilish mumkin. Yigit va qizlar o‘rtasidagi aytishuvlar davomiyligida ko‘p holatlarda ohang, temp, ichro va hor ijrochiligi kabilar namoyon bo‘ladi.

Maxsus qoliplar. “Maxsus qoliplar ham mavjud ekanligi yuzasidan shuni aytish mumkinki, ular nutq davomida dastlabki qismlarda namoyon bo‘lib, izidan muallifliflik gaplar, ko‘chirma gaplar kelishi mumkin. Manashunday maxsus qoliplar askiya, yumoristik holatlar, ma’lum tartib qoidaga bo‘ysinuvchi maxsus qoliplar bor”[2]. Misol uchun: Gulmisiz, rayhonmisiz, sunbulmisiz. Yoki absana, o‘xshatdim kabilar.

Yuqoridagi masalalar yuzasidan quyidagicha xulosaga kelish mumkin, xalq og‘zaki ijodi namunalarining ifodalanishi va nutq madaniyati masalalari bugungi kunda dolzarb masalalardan biri sanaladi. Isnon kamolotining shakllanishida va voyaga yetib o‘z o‘rnini topishida albatta nutq yetarlicha ahamiyat kasb etib, xalq og‘zaki ijodiyotini ya’ni o‘tmish va hozirgi kunning nutqiy o‘sishini ochib beruvchi xalq og‘zaki ijodida nutq masalalari muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Tojiyev Yo., Mallaboyev M. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. Toshkent:. Iqtisodiyot, 2006

2. Rasulov R., Niyozmetova R., Mo‘ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. O‘quv qo‘llanma. Toshkent:. Fan va texnologiya,200

[2] Rasulov R., Niyozmetova R., Mo‘ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. O‘quv qo‘llanma. Toshkent:. Fan va texnologiya, 2009.